

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori  
Sh.S.Sharipov**

\_\_\_\_\_

2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_

**«MA’QULLANDI»**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi OAK raisi  
A.T.Yusupov**

\_\_\_\_\_

2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_

**10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon  
DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**JIZZAX-2025**

Dastur 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon topshirovchilar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashida ko‘rib chiqilgan va OAKka tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (2025- yil “\_\_\_\_\_” dagi \_\_\_\_\_ -sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar:**

filologiya fanlari doktori, professor	A.E.Mamatov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A.J.Jabborova
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent	N.Q.Bo‘riyeva

## **KIRISH**

Mamlakatimizda chet tillarini o'qitishni rivojlantirish, ta'lim sifatini yuksaltirish, o'quvchi yoshlarning chet tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham o'z maqsadi va vazifalari mavjud.

Til murakkab muloqot tizimi hisoblanadi. Xalqlar muloqoti uchun, ijtimoiysiyosiy munosabatlar uchun ham til asosiy vositadir. Har bir xalqning rivojlanishida adabiy-aloqalar ham muhim o'rin tutadi. Adabiy aloqalarni rivojlantirish esa xalqlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarjimashunoslik bo'lsa barcha xalqlar urf-odatlari va ilmiy ishlari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlar yurtimiz ravnaqida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo'nalishlar, nazariy ta'limotlar, adabiy aloqalar va lingvistik maktablar, lingvistik konsepsiyalarga oid bilim va ko'nikmalarni tekshirish va baholash uchun ishlab chiqilgan.

## **Metodologik masalalar**

Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uni rivojlantirish borasida tilshunoslar, umuman, ziyolilar oldiga qo'ygan vazifalari va ko'rsatmalari.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni (1989 yil 21 oktyabr, 1995 yil 25 dekabr), uning mohiyati, Qonunning jamiyat hayotidagi va o'zbek tili rivojidadagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni (1993 yil 2 sentyabr, 1995 yil 6 may)ning mazmuni va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni tasdiqlash haqida»gi Qarori (1995 yil 24 avgust), imlo qoidalari amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni (2016 yil 14 may)da o'zbek tilshunosligini rivojlantirishga doir ko'rsatmalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ–4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorining ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining o‘zbek tili taraqqiyotidagi roli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 Yil 20 oktyabrdagi PF-6084-Son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun-mohiyati.

Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis qonunchilik palatalariga murojaaaatnomalarining mazmun-mohiyati.

## **1. MALAKAVIY IMTIHONNING ASOSIY TALABLARI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mutaxassisligi bo‘yicha malakaviy imtihonida quyidagi mavzular bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon qila olishi talab etiladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy, tipologik va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda lingvistik tarjimashunoslikka oid materiallar adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiyot nazariyasi, tipologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, tillarni qiyosiy tarixiy o‘rganish, xalqlarning madaniyati, tarixi, urf-odatlar bilan shug‘ullanuvchi mamlakatshunoslik fanlari bilan bog‘liqdir.

Talabgor nazariy grammatika, nazariy fonetika, leksikologiya, stilistika kabi fanlardan ham yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurdir.

## **2. DASTURNING ASOSIY MAZMUNI**

### **Qiyosiy adabiyotshunoslik**

Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari. Filologik komparativistika haqida tushuncha. Adabiy komparativistikaga xos xususiyatlar. Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida. Qiyosiy tahlil obyektlari. Qiyosiy tahlilning vazifalari. Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar. Qiyoslanishi mumkin bo‘lgan tipik vaziyatlar.

Ilmiy-tadqiqot metodlari va qiyosiy tahlil. Qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirish metodi xususida. Qiyoslash natijalarini baholashning mezonlari. Qiyosiy tahlil natijalarining xolisligini ta'minlash shartlari. Poetika haqida tushuncha. Poetikaning tasnifi. Badiiylik va badiiy mahorat. Poetikaga oid zamonaviy tadqiqotlar. Milliy, hududiy va jahon adabiyoti. Adabiyotlararo aloqalar. Tipologiya va tipologik mushtaraklik. Adabiyotshunoslikda multikulturalizm. A.N. Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, A.Dima, A.Dyurishinning qiyosiy adabiyotshunoslikka old tadqiqotlari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining predmeti: adabiy-estetik, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy manbalar va ularga oid tadqiqotlar. O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy metod masalalari: komparativistika, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik. Qiyosiy adabiyotshunoslik va gumanitar fanlar. Mazkur fanning folklorshunoslik, mumtoz poetika, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid tarixi va nazariyasi bilan uzviy bog'liqligi. Sharq va G'arb adabiyoti: davrlar. adabiy-estetik qarashlar, adabiy oqimlar, adabiy siymolar, adabiy-estetik manbalar. Poetik komponentlar tipologiyasi. Qiyosiy adabiyotshunoslikda sinkretizm masalasi. Sinkretizm qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy asosi sifatida. Mif va uning manbalari. Shumer, Hind, Misr, Xitoy, O'rta Osiyo va Eron, antik Yunon mifologiyasi, badiiy, tarixiy, falsafiy, psixologik omillari. Sharq va G'arb eposi tipologiyasi. "Bilgamish", "Ramayana", "Mahobhorat", "Iliada", "Odisseya", "Alpomish" eposlari: syujet, motiv, obraz va epik tasvir tipologiyasi. Eng qadimgi drama qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida. Teatr san'atining paydo bo'lishi. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. av. 5-asrlarda teatrning jamiyat hayotida tutgan o'rnini. Sharq va G'arb teatrining o'xshash hamda farqli jihatlari. Sharq va G'arb adabiyotidagi lirik janrlar. O'zaro aloqalar natijasida vujudga kelgan lirik janrlar. Sharq va G'arb badiiy tafakkuri qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida. Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning adabiy-estetik qarashlari qiyosi. Platon va Aristotelning adabiy qarashlari. Aristotelning "Poetika" asari. Forobiyning yunon va arab adabiyoti haqidagi fikrlari. Sharq va G'arb Renessans adabiyotini qiyosiy o'rganish. Sharq va G'arb Uyg'onish adabiyotining konseptual o'xshashliklari va (farqlari, xronologik chegaralari, ma'rifiy, falsafiy, adabiy-estetik omillari. Sharq va G'arb Renessansida o'zaro ta'sir masalasi. Italyan, ingliz, ispan, fransuz, nemis adabiyotida arab, eron, turkiy adabiyot an'alarining namoyon bo'lishi. Shekspir va Gyote Sharq - islom adabiyotining sodiq muxlislari sifatida. K.Marlo ijodida Amir Temur obrazi. G'arb xalqlari og'zaki va yozma ijodida Aleksandr mavzusi. Xamsanavislar ijodida Iskandar obrazi: Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. Sharq va G'arb klassitsizmi: umumiylik va xususiylik. Klassitsizm umuminsoniy hodisa sifatida. Klassitsizmning falsafiy asoslari. Sharq va G'arb ma'rifatchiligi tipologiyasi: fransuz va jadid ma'rifatchiligi. G'arb

adabiyotida fransuz, ingliz va nemis ma'rifatchiligi. Ulaming umumiy va farqli jihatlari. Ma'rifatchilik g'oyalarining adabiyotda aks etishi. Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyoti: mavzular, janrlar, g'oyalar, obrazlar tipologiyasi. Gyote, Russo, Volter, Didro, Defolarning ijodiy prinsiplari. Jadid ma'rifatchiligi: Behbudiy, Fitrat, Avloniyalar ijodi. Sharq va G'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm. Sentimental falsafa va adabiyot. Sharq va G'arb sentimentalizmining umumiy jihatlari. XIX-XX asrlar Yevropa romanchiligi va Sharq zamonaviv nasri. Roman janrining shakllanishi. Milliy adabiyotlarda roman janriga intilishning kuchayishi. Daniel Defo, P. Beranje, Stendal, P. Merime, Balzak va Charlz Dikenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. Yevropa modernizmi va yangi o'zbek adabiyoti vakillari: J. Joys, F. Kafka, A. Kamyu, N. Eshonqul, Sh. Hamro, T. Rustamovlar asarlarining qiyosiy tahlili. Modernizm she'riyati. Jahon adabiyotida postmodernizm tushunchasi.

### **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аминова В.Р. Теоретические основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. Учебное пособие. - Казань, 2014. - 105 с.
2. Гарипова Г.Т. Сравнительное литературоведение. Современные тенденции русской литературной компаративистики. Учебное пособие Владимир: Изд-во ВлГУ, 2022. - 125 с.
3. Jahon adabiyoti. Jamoaviy darslik. - Toshkent: «EFFECT-D, 2024. - 514 б.
4. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад - М.: Наука, 1979. - 495 с.
5. Журакулов У., Хамроев К. Киёсий адабиётшунослик . Укув кулланма -Т.: 2020. - 226 б.
6. Погребная Я.В. Сравнительно-историческое литературоведение: учеб. пособие / Я.В. Погребная. - 2-е изд., стереотип. - М.: ФЛИНТА, 2011. - 84 с.
7. Селитрина Т.Л. Преемственность литературного развития и взаимодействие литератур. - Уфа: Изд-во БГПУ, 2006. - 104 с
8. Сравнительноеи сопоставительное литературоведение: Хрестоматия / Составители: В.Р.Аминова, М.И.Ибрагимов, А.З.Хабибуллина. - Казань: Издательство «ДАС», 2001. - 390 с.
9. Сравнительное литературоведение: Хрестоматия / Отв. Ред. Данилина Г. И. - 2-е изд. - Тюмень: Тюменский гос. Ун-т, 2011. - 632 с.
10. Халлиева Г. Киёсий адабиётшунослик. Ўкув кўлланма. - Т.: Академ нашр, 2020. - 160 б.
11. Khalliyeva G., Kholikov B. Comparative Literature. - Turkey: Fenomen, 2023. - 163 p.

12. Халлиева Г.И. Сравнительное литературоведение. Учебное пособие. - Ташкент, 2024. - 150 с.
13. Топор Г. Сравнительное литературоведение: из практики сравнительно-типологического и сравнительно-сопоставительного анализа: Учебное пособие. «Кишинэу», 2020. - 223 р.
14. То‘rayeva В., Ко‘chimov U. Adabiyotshunoslik. Darslik. - Toshkent: «Malik Print со», 2022. - 192 б.
15. Тураева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. Монография. Тошкент: «EFFEKT-D» нашриёти, 2022. - 286 б.
16. Чугунов Д. А. Сравнительное литературоведение: учебнометодическое пособие / Д. А. Чугунов. - Воронеж: ВГУ, 2016. - 48 с.
17. Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - Toshkent: Akademnashr, 2019. - 161 б.

### **Qiyosiy-tarixiy, tipologik chog‘ishtirma tilshunoslik**

Qiyosiy tipologiyaning predmeti va maqsadi. Tillar tipologiyasi tillar tuzilishining umumiy qonunlarini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi. Lingvistik tipologiyaning rivojlanishi. Lingvistik tipologiya rivojlanishining asosiy faktorlari. Lingvistik tipologiya va uning predmeti. Tillar tipologiyasi bo‘limlari: tipologiya, genetik tipologiya, (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik), areal tipologiya (areal tilshunoslik). Xorijiy va ona tilining qiyosiy tipologiyasi fanning tarjima va chet tilini o‘qitish metodikasi fanlari bilan aloqasi. Bu fanning kelib chiqishi va rivoji. Struktural tipologiya. Til birliklarining semantik, strukturaviy rivojlanishi. Qiyosiytarixiy tilshunoslik namoyandalari va ularning bu fanga qo‘shgan hissalar. Tilda mikro va makrokategoriyalar va ularni qiyoslash. Makrokategoriyalar: grammatik kategoriyalar, semantik maydon, leksik-semantik guruh, sintaktik kategoriya, so‘z yasash maydoni, so‘z turkumi, sintaktik maydon va boshqalar. Makrokategoriyalar: tushuncha kategoriyasi (I.I.Meshchaninov), funksional semantik maydon, (A.V. Bondarko), grammatik-leksik maydon, (E.V. Guliga, Ye.I. Shendels), tipologik kategoriya (J.Bo‘ronov). Tipologik va milliy kategoriyalar. Funksional-semantik, grammatik-leksik va tipologik kategoriya nazariyalarining bir-biriga yaqinligi va ular tildagi aynan bir til hodisasiga turlicha yondashishning natijasi ekanligi. Lingvistik tipologiyadagi asosiy parametrlar klassifikatsiyasi. Lingvistik tipologiyaning asosiy rivojlanish omillari. Lingvistik tipologiyaning til yaruslariga ko‘ra bo‘limlari. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tipologiya. Qiyosiytarixiy tilshunoslik va tipologiya. Ko‘plik tipologik kategoriyasi. Tipologiyaning segment yarusi. N.Xomskiy tipologik qarashlari. Lingvistik universalialar. Turkiy tillar tipologiyasi, mayl tipologik kategoriyalar. Semantik tipologiya. Tillarning tovush tuzilishidagi tipologik farqlari. So‘z tartibi

tipologiyasi: qat'iy va erkin so'z tartibi. Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida tipologik qarashlar. Qiyosiy tipologiya va lug'at turlari. So'z boyligini boyishining tahlili. A.Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asaridagi tipologik qarashlar. Tipologiyada allomorfizm tushunchasi. Qiyosiy tipologiya, chog'ishtirma tilshunoslik va semasiologiya. Porroyal grammatikasi. Qiyosiy tipologiya va leksik-stilistik usullar. Lingvokulturologiya va dunyoni qurish nazariyalari. Chog'ishtirma tilshunoslik predmeti. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni qiyoslash. Kontrastiv lingvistika. Chog'ishtirma tilshunoslik metodlari. Kognitiv tilshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik. Qiyosiy tilshunoslik va lingvokulturologiya. Chog'ishtirma tilshunoslik va pragmalingvistika.

### **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. –М.: Просвещение, 1989. - 254 с.
2. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш: Олий уцув юртларининг фил. фак. талабалари учун дарслик. - Т.: Шарц, 2010. - 176 б.
3. Абдуазизов А.А., Бушуй А.М., Бушуй Т.А., Салиева М.А., Сиддикова И. А. История лингвистической типологии. - Т.: 2016. - 176 б
4. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. - Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина, 2014. - 236 с.
5. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - М.: Высшая Школа, 1983. - 267 с.
6. Буранов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1973. - 246 б.
7. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание / Ред. М.А. Кронгауз. - М.: Русские словари, 1997. - 416 с.
8. Гак В.Ю. Сопоставительная лексикология. - М.: Международные отношения, 1977. - 264 с.
9. Маслова В.А. Лингвокультурология. - М.: Академия, 2001. - 208 с.
10. Методы сопоставительного изучения языков. Сб. статей. - М.: Наука, 1988. - 94 с.
11. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Т.: Mumtoz so'z, 2010. - 288 б.
12. Расулов Р. Умумий тилшунослик. - Т.: Fan va texnologiya, 2007. - 256 б.
13. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. - Т.: Фан, 2005. - 268 с.
14. Сабитова З.К. Лингвокультурология. - М.: Флинта, 2013. - 521с.
15. Сатимов Г.Х. Типология безличных предложений. - Т.: 1987. - 92 с.

16. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. - 92 б.
17. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2000. - 300 б.
18. Хашимов Г. Типология сложных предложений разносистемных языков. - Т.: Фан, 1991. - 105 с.
19. Хахимов М. Прагмалингвистика курсига кириш. - ФарФОНа. Classic, 2022. - 396 б.
20. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. - Т.: Фан, 2007. - 125 с.
21. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. - Т.: 2019. – 2.

### **Tarjimashunoslik**

Tarjima tarixi: Yevropa va Markaziy Osiyoda tarjimashunoslikning rivojlanishi. Tarjima maktablari. Yevropa va o'zbek tarjimonlarining faoliyati. Antik davr tarjimonlari. Yevropa va Markaziy Osiyodagi tarjima maktablari. Bog'dod tarjima maktabi. Toledo tarjima maktabi. Xorazm tarjima maktabi. Tarjima va madaniyat. Tarjimaning madaniyatga aloqadorligi, madaniy so'zlar va ularning tarjima qilish yo'llari, tarjimaga xalq madaniyatining ta'siri, tarjimada madaniyat kategoriyalari, ekologiya, moddiy, ijtimoiy madaniyat. Xalqlar urf-odatlarini, tushuncha, fikr va mulohazalari, diniy, siyosiy va ijtimoiy tuzumi, kishilarning odob va xulqlari, yashash tarzining tarjimada aks etishi. Tarjimaning leksik muammolari. So'z va uning ma'nosi. So'z muqobillari. So'z muqobillarining turlari. To'liq muqobillar, yetarlicha bo'lmagan muqobillar va muqobil bo'lmaslik. So'z ma'nolarining turlari. Tarjimada so'z ma'nolari o'rtasida aloqalar. Lug'aviy va kontekstual ma'nolarning tarjimada berish yo'llari. Tarjimaning grammatik muammolari. Tillar o'rtasidagi grammatik aloqalar. Grammatik tuzilish va tillar o'rtasidagi farqlar. Grammatik modellar. Grammatik muqobillik. Grammatik muqobillikning turlari. To'liq muqobillik, yetarlicha bo'lmagan muqobillik va muqobillikning yo'q bo'lishi. Morfologik va sintaktik muqobilliklar. Grammatik transformatsiya. Grammatik transformatsiya turlari. Tarjimada tushib qolish va qo'shish hodisalari. Tarjimaning frazeologik muammolari. Tarjima va frazeologiya o'rtasidagi aloqalar. Frazeologik birikmalar va ularning turlari. Frazeologik birikmalardagi muqobillik turlari. To'liq muqobillik, yetarli bo'lmagan muqobillik va muqobillikning yo'q bo'lish hodisalari. Frazeologik birikmalarning tarjima qilish yo'llari va usullari. Tarjimaning stilistik muammolari. Metafora va o'xshatish, metonimiya hodisalari. Stilistik troplarni tarjima qilish usullari. Stilistik ma'no, pragmatik ma'no, tarjimada stilistik funktsiyalarning ta'siri haqida. Leksik muqobillik. Leksik muqobillik haqidagi tilshunoslar fikrlari. Muqobillik turlari. Muqobillik yarusi va

adekvat tarjima haqida tushuncha. Leksik transformatsiya va uning turlari. Leksik substitutsiya, qo'shish, tushirib qoldirish, kompensatsiya. Antonimik tarjima. Tarjimaning turlari. Ko'rib tarjima qilish (Sight translation). Ko'rib tarjima qilish metodikasi, qoidalari. Tarjima qilish usullari. Ketma-ket tarjima. Simvol, belgilar, ularning turlari. Yozib olish (Note taking), uning turlari. Qisqartmalar. Sinxron tarjima. Sinxron tarjimaning maqsadi, vazifalari va uning boshqa tarjima turlaridan farqi. Sinxron tarjima anjumanlardagi tarjima ekanligi. Sinxronist tarjimanni nutqini o'stirish. Sinxron tarjimada leksik birliklarni ishlatish yo'llari. Sintaktik bog'lanishni berilishi. Kategoriyali semantik komponentlar. Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng yuqori ko'rinishi ekanligi. Matnning asosiy mazmunini ifoda etuvchi so'zlar va iboralarni topish yo'llari. Tarjima jarayonida xotirani rivojlantirish. So'zlar birikishida taxminiy mazmunni aniqlash. Gapning semantik mazmunini qurilishini idrok etish. Sinxron tarjima jarayonida matndagi mavzu va rejani aniqlash. Sinxron tarjimadagi kommunikativ vaziyat va holat. Sinxron tarjimanni anjumanga tayyorlash. Anjuman mavzusi va muammolari bilan tanishish uslubiyatini qo'llash. Kompressiya va uning turlari.

#### **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Междунар. Отношения, 1975. - 240 с.
2. Виноградов В. С. Введение в переводоведение. - М.: Изд-во ИОСО РАО, 2001. - 224 с.
3. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. - М.: Высш. Школа, 1978. - 350 с.
4. Фафуров И., Муминов О., Камбаров Н. Таржима назарияси. - Т.: Тафаккур Бустон, 2012. - 216 б.
5. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода: учеб. Пособие. - М.: 1999. - 136 с.
6. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. - М.: ЭТС, 2002. - 424 с.
7. Рахимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти. - Т.: Ўзбекистан миллий энциклопедияси, 2016. - 176 б.
8. Рецкер А.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода. - М.: Р. Валент, 2007. - 244 с.
9. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. - Т.: Ўқитувчи, 1978. - 220 б.
10. Чернов Г.В. Основы синхронного перевода. - М.: Высшая школа, 1987. - 256 с.
11. Muminov A. A Guide to simultaneous translation. - Т.: Tafakkur bo'stoni, 2013. - 320 p.

12. Newmark P. Approaches to translation. - Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. - 234 p.

13. Самигова Х.Б. Ахмедова А. Translation of Special Texts. Дарслик. - УзДЖТУ, Тошкент, Moldova Globeedit, 2023. - 361 б.

### BAHOLASH MEZONLARI

<b>Baho</b>	<b>Talabgorning bilim darajasi</b>
<b>100 - 86</b> <b>“A’lo”</b>	Talabgor berilgan savollar bo'yicha xulosa qila oladi, ijodiy fikrlay oladi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega topilganda.
<b>85-71</b> <b>“Yaxshi”</b>	Talabgor qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega deb topilganda.
<b>70-56</b> <b>“Qoniqarli”</b>	Talabgor olgan bilimni amalda qo'llay oladi, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda tasavvurga ega deb topilganda.
<b>55-0</b> <b>“Qoniqarsiz”</b>	Talabgor qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha dasturni o'zlashtirmagan, ushbu yo'nalish mohiyatini tushunmaydi hamda ixtisoslik bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.